


Qo'zini toza izlabdi, axiri topolmay yana yo'lga tushibdi.

3-topshiriq. Raqamlarni ketma-ketlikda bir-biriga ulang. Qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitib, ertak mazmuniga mos rasm ishlanadi. (Bu topshiriq uy vazifasiga berilsa ham bo'ladi)

Darslikda berilgan topshiriqlar bajariladi.

Topishmoqlarning javobini topiladi.



1. Kuchukday ko'rinishi,
Pichoqday o'tkir tishi.
Vahshiy hayvondir o'zi,
Yeydi qo'y-u va qo'zi. **(Bo'ri)**

2. To'rt oyoqli,
Temir tuyoqli.(Ot)
3. Kichkintoygina bo'yi bor,
Aylantirgan to'ni bor.(Qo'y)

- 4.Erta turadi,
Jar chaqiradi. (Xo'roz)

3. Yakuniy qism(xulosalash va baholash):

- Bugungi darsdan nimalarni bilib oldingiz?
- Sizga nima qiziq bo'ldi?

 **Uyga vazifa:** Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

3-mavzu: Hayvonlar haqida ertaklar

Dars maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni ertak bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni ezgulikka intilib yashashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: amaliy mashg'ulot

Dars metodi: savol-javob, suhbat, rolli o'yin

Dars jihozi: suratlar va plakatlar

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

- O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.
- Mavzu nomi e'lon qilinadi.
- Tashkiliy savollar beriladi.
- O'tilgan mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriq so'raladi:

Ushbu gaplar qaysi qahramonga tegishli?

- Agar yeydigan bo'lsang, kashnich va piyoz bilan qo'shib yegin. Shunda haqiqiy mazani his qilasan.
- Yaxshisi, borib konning tuzidan olib kel, shundan keyin go'shtimni maza qilib yeb, xumordan chiqasan.
- Men seni yeyman.

2.Asosiy qism(dars mazmunini tushuntirish va mustahkamlash):

Bosh qahramoni
bo'ri bo'lgan yana
qanday ertaklarni
bilasiz?

Ertakni o'qish. O'quvchilar fonetik usulda ertakni o'qiydilar.

Savol-javob:

1. Cho'lda bo'ri nimani uchratibdi?
2. Ot qanday hiyla o'ylab topibdi?
3. Ertak qanday yakun topibdi?
4. Sizningcha, bo'rining bunday holatga tushishiga nima sabab bo'ldi?

Lug'at bilan ishlash.

unnab – harakat qilib, urinib

aljiramoq– bema'ni gaplarni gapirmoq

ta'zir bermoq – aybi yoki xatosini aytib koyimoq

O'quv topshiriq.

1-Ot va Bo'rining gaplarini aniqlab, rollarga bo'lib o'qing.

2-Ertakdagi voqealar ketma-ketligini qisqacha yoritib.

3-Xo'roz, Qo'zi va Otga ta'rif bering.

Ularni nima birlashtiradi?

Ot

Xo'roz

Qo'zi

Yakuniy qism(xulosalash va baholash):

Dars xulosalanadi va o'quvchilar baholanadi.

 **Uyga vazifa:** Ertakning rasmini chizing. Ertak mazmunini qisqacha so'zlab bering.

4-mavzu: Boyo'g'li bilan qarg'a (audiomatn)

Dars maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni "Boyo'g'li bilan qarg'a" yapon xalq ertagi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni o'zaro hurmat va tenglikka o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, topishmoq usuli, rolli o'yin

Dars jihozi: suratlar va plakatlar

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

-O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

-Mavzu nomi e'lon qilinadi.

-Tashkiliy savollar beriladi.